

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

FORS VA DARIY TILLARIDA SO'Z TURKUMLARINI TASNIFLASH  
MUAMMOLARI*Xolida Alimova**O'qituvchi, filologiya fanlari doktori, professor,  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:**

morfologiya, so'z turkumlari, ot, ot-sifat, sifat-ravish, olmosh, son, fe'l, mustaqil so'z turkumi, yordamchi so'zlar.

**Annotatsiya:** Fors va dariy tillarida mustaqil so'zlar quyidagi so'z turkumlari o'rtasida taqsimlanadi: ot, sifat, ot-sifat, son, olmosh, fe'l va ravish. Maqolada mazkur tillarda so'z turkumlarini tasniflashdagi asosiy yondashuvlar, ularning yuzaga kelish sabablari, so'z turkumlarini ajratishdagi muammolar, so'z turkumlarini belgilash mezonlari o'rganilgan.

O'tgan asrning o'rtalarida fors tilida so'zlarni turkumlarga ajratish masalasiga e'tibor qaratilgan. A. G'arib, M. Bahor, B. Foruzanfar, J. Humoiy, R. Yosamiy, A. Humoyun Farrux, A. Xayyompur, P.N. Xonlariy, A. Mavlaviy, H. Ahmadiy-Giviy va H. Anvariylar kabilarning grammatik asarlarida so'z turkumlarini ajratishda mezonlar tafovuti mavjud. Natijada ularning miqdori ham o'zaro farq qiladi. Dariy tilida so'zlarni turkumlarga ajratish fors tili bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning ta'sirida yuzaga kelgan. Shunga qaramay, M.N. Saidiy, M.R. Ilhom, M.H. Yamin, R. Farhodiy, A. Yosin, A. Majidning asarlarida farqli yondashuvlar kuzatiladi.

Ot va sifat turkumlari oralig'idagi so'zlar, ravishning so'z turkumi sifatida boshqa so'z turkumlari, ayniqsa, ism turkumidan ajratish masalasi ham jiddiy. Mutaxassislar tomonidan bularni o'zaro chegaralashning turli mezonlari taklif qilingan.

Ism so'z turkumlariga, shuningdek, olmosh va son ham kiradi. Ba'zi eron tilshunoslari son turkumini arab tilidagi kabi alohida so'z turkumiga ajratmaydilar. Fors tili grammatikasiga oid aksariyat ishlarda sanoq sonlar ham, tartib sonlar ham miqdor (hisob) sifatlari qatorida o'rganiladi.

Yordamchi so'zlar nominativ (atash) vazifaga ega emas, mustaqil so'zlar orasidagi (old va ort ko'makchilar) yoki so'z va gaplar orasidagi (bog'lovchilar) munosabatlarni ifodalaydi, ayrim

so'z va gapga birikib, turli ma'no ottenkalarini (yuk lama) beradi. Undovlar his-hayajon, buyruq-xitob, haydash, chaqirish kabi ma'nolarni bildiradi. Modal so'zlar so'zlovchining o'zi ifodalayotgan fikrga turli munosabatini, fikrning aniqligi, noaniqligi kabi ma'nolarni ifodalaydi.

---

## PROBLEMS OF CLASSIFYING PARTS OF SPEECH IN PERSIAN AND DARI LANGUAGES

*Kholida Alimova*

*Teacher, Doctor of Philological Sciences, Professor,  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** morphology, parts of speech, noun, noun-adjective, noun-adverb, pronoun, numeral, verb, autonomous words, syntactic words.

**Abstract:** Persian and Dari languages incorporate autonomous words into various parts of speech, including noun, adjective, noun-adjective, numeral, pronoun, verb and adverb. This article explores the primary methods used for classifying the parts of speech in these languages, as well as the reasons for their emergence, the challenges involved in classification and the criteria for assigning parts of speech.

The classification of parts of speech in the Persian language dates back to the mid-20th century. The works of A. Gharib, M. Bahar, B. Forouzanfar, J. Khomai, R. Yasemi, A. Homayoun Farrokhi, A. Khayampour, P.N. Khanlari, A. Mawlawi, N. Ahmad-Givi and H. Anwari show inconsistent criteria for categorising parts of speech, leading to varying quantities of them. In the Dari language, the categorisation of word types is impacted by research conducted on Persian language. Nonetheless, the works of M.N. Saidi, M.R. Ilkhom, M.H. Yamin, R. Farhadi, A. Yasin and A. Majid reveal differing methods of identifying parts of speech.

Distinguishing between nouns and adjectives that can function as both, and identifying adverbs as a distinct part of speech, is a current issue in linguistics. Specialists have proposed various criteria for differentiation.

Pronouns and numerals are also considered noun parts of speech. Some Iranian linguists do not separate Persian numerals as a distinct part of speech, unlike in Arabic. In the majority of Persian grammar literature, numerals, regardless of whether they are ordinal or quantitative, are classified as quantitative adjectives that pertain to counting or numerical value.

Syntactic words, which are unable to nominative functions, demonstrate relationships between words through prepositions and postpositions, or between words and sentences with conjunctions. They can also alter the meaning of individual words and sentences as particles. Interjections expressing emotions and desires, as well as modal words that convey the speaker's subjective assessment of their statement in relation to objective reality, occupy significant positions among the parts of speech.

---

## ПРОБЛЕМЫ КЛАССИФИКАЦИИ ЧАСТЕЙ СЛОВ В ПЕРСИДСКОМ И ДАРИДСКОМ ЯЗЫКАХ

*Холида Алимова*

*Учитель, доктор филологических наук, профессор,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** морфология, части речи, имя существительное, существительно-прилагательное, существительно-наречие, местоимение, имя числительное, глагол, знаменательные слова, служебные слова.

**Аннотация:** В персидском и дари языках знаменательные слова распределяются между следующими частями речи: именем существительным, именем прилагательным, существительно-прилагательными, именем числительным, местоимением, глаголом и наречием. В статье изучены основные подходы к классификациям частей речи данных языков, причины их возникновения, проблема классификации и критерии выделения частей речи.

К классификации частей речи в персидском языке было уделено внимание ещё в середине прошлого века. В грамматиках А. Гариба, М. Бахара, Б. Форузанфара, Дж. Хомаи, Р. Ясеми, А. Хомайуна Фарроха, А. Хайампура, П.Н. Ханлари, А. Мавлави, Н. Ахмада-Гиви и Х. Анвари имеется расхождение в критериях выделения частей речи, в результате чего отличаются их количество. В языке дари в классификации частей речи имеется влияние исследований по персидскому языку. Тем не менее, в работах М.Н. Саиди, М.Р. Ильхома, М.Х. Ямина, Р. Фархади, А. Ясина, А. Маджида прослеживается разный подход к частям речи.

Также актуальной проблемой являются имена, способные выступать в функции существительных и прилагательных, отграничения наречия как части речи от других частей речи, в особенности имен. Выдвигались специалистами различные критерии их разграничения.

К именным частям речи относятся также местоимения и числительные. Некоторые иранские лингвисты не выделяют персидские числительные в отдельную часть речи, подобно тому, как это делается в арабском языке. В большинстве трудов по грамматике персидского языка числительные, как количественные, так и порядковые, рассматриваются в качестве количественных (числовых, счетных) прилагательных.

Служебные слова, лишенные способности выполнять номинативные функции, выражают взаимоотношения между словами (предлоги, послелог) или между словами и предложениями (союзы) или примыкая к отдельным словам и предложениям придают им различные оттенки значений (частицы). Основные положения среди частей речи занимают междометия, выражающие чувства и волеизъявления, и модальные слова, выражающие оценку говорящим своего высказывания с точки зрения его отношения к объективной действительности.

---

**KIRISH**

Eron va afg'on tilshunoslarining grammatik asarlarida so'z va gap alohida bo'limlarda tahlil qilinsa-da, morfologiya va sintaksis kesishgan holatlar kuzatiladi. So'zlarni turkumlarga ajratishda sintaktik mezonga asoslanilgani ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, hozirgi dariy tili grammatikasi fors tili grammatik asarlari zahirida shakllangan. Bu til uzoq davr mobaynida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida fors tilining tadqiqiga oid ishlar tarkibida o'rganildi<sup>1</sup>. Dariy tilini tadqiq etish o'tgan asming 60-yillaridan, aniqrog'i, 1964-yili Afg'oniston Konstitusiyasida «forsiy-e kobuliy» rasman «dariy tili» deb e'lon qilingandan so'ng boshlandi. Shuningdek, dariy tiliga fors tilining milliy (mintaqaviy) varianti deb qarash tendensiyasi ham mavjudligini unutmazlik kerak. Shunga qaramay, afg'on tilshunoslarining asarlarida g'arb tilshunosligining ta'siri kuzatiladi.

Fors va dariy tilshunosligida so'z turkumlarini ajratishdagi muammolar, so'z turkumlarini belgilash mezonlarini tanqidiy o'rganish genetik jihatdan yaqin qarindosh tillar doirasida hozirgi fors va dariy tillarining kesishgan va farqli ayrim xususiyatlarini ko'rsatish imkonini beradi.

### TADQIQOTNING USULLARI

Fors va dariy tillarida so'z turkumlari tasnifidagi asosiy yondashuvlarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, mazkur tillarda so'zlarni turkumlash mezonlarini belgilash va muammolar sababini asoslash maqsad qilinadi.

**Usullar.** Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, sistem-struktur va komponent tahlil metodlari asosida o'rganildi.

### NATIJALAR

O'tgan asrning o'rtalarida fors tilida so'zlarni turkumlarga ajratish masalasiga Tehron universitetining besh nafar professori A. G'arib, M. Bahor, B. Foruzanfar, J. Humoiy va R. Yosamiy tomonidan yaratilgan «دستور زبان فارسی» («Fors tili grammatikasi») asari<sup>2</sup>da e'tibor qaratilgan va quyidagicha tasniflangan: ot (اسم *esm*), sifat (صفت *sefat*), olmosh (ضمير *zamir*), son (عدد *adad*), fe'l (فعل *fe'l*), ravish (قيد *qeyd*), ko'makchi (حرف اضافه *harf-e ezāfe*), bog'lovchi (حرف ربط *harf-e rabt*), undov (صوت *sout*).

A. Humoyun Farrux «دستور جامع زبان فارسی» («Fors tilining to'liq grammatikasi») kitobi<sup>3</sup>da oltita so'z turkumini keltirgan: ot (اسم *esm*), sifat (صفت *sefat*), olmosh (ضمير *zamir*), fe'l (فعل *fe'l*), ravish (قيد *qeyd*), yordamchi so'zlar (حروف *horuf*). Muallif tasnifda son va undovni so'z turkumi sifatida ajratmagan, ko'makchi va bog'lovchi esa bir guruh (حروف *horuf*) ga birlashtirilgan.

A. Xayyompur «دستور زبان فارسی» («Fors tili grammatikasi») kitobi<sup>4</sup>da oltita so'z turkumini ajratib ko'rsatgan: ot (اسم *esm*), sifat (صفت *sefat*), fe'l (فعل *fe'l*), ravish (قيد *qeyd*), yordamchi so'zlar (شبه جمله *šebh-e jomle*), undov (صوت *sout*). Uning tasnifida olmosh va son so'z turkumi sifatida ajratilmagan. U sonlarni sanoq sifatlar (صفت شمارشی *sefat-e šomāreši*) tarkibida tavsiflagan. Muallifning fikricha, sonlarni mustaqil so'z turkumi sifatida ajratishga asos yo'q. Fors tili so'z turkumlarini tasniflashda ularni faqat gapdagi vazifalaridan kelib chiqiladi. A. Xayyompur so'z turkumlarini tasniflashda asos sifatida morfologik, semantik va so'z yasovchi belgilarni e'tiborga olmay, faqat sintaktik mezonga asoslangan.

P.N. Xonlariy «دستور زبان فارسی» («Fors tili grammatikasi») asari<sup>5</sup>da sakkizta so'z turkumini ajratib ko'rsatgan: ot (اسم *esm*), sifat (صفت *sefat*), olmosh (ضمير *zamir*), fe'l (فعل *fe'l*), ravish (قيد *qeyd*), ko'makchi (حروف اضافه *horuf-e ezāfe*), bog'lovchi (حروف ربط *horuf-e rabt*), undov (اصوات *osvāt*). Muallif so'z turkumlarini tasniflashda sintaktik mezonga asoslangan. U so'z turkumlariga

<sup>1</sup> Алимова, Х. (2021). Проблемы изучения словообразования в даринлингвистике. Востокведения, 1(1), 32–48. извлечено от <https://www.inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/15816>

<sup>2</sup> ملك الشعرا بهار، بديع الزمان فروزانفر، عبدالعظيم غريب، جلال همای، رشید یاسمی. دستور زبان فارسی برای سال اول و دوم دبیرستانها. ۱۳۲۸-۱۳۲۹.

<sup>3</sup> همایونفرخ عبدالرحیم. دستور جامع زبان فارسی. هفت جلد در یک مجلد، چاپ 2. - تهران، 1339.

<sup>4</sup> خیامپور عبدالرسول. دستور زبان فارسی چاپ دوم. تبریز، 1334.

<sup>5</sup> پرویز ناتل خانلری. دستور زبان فارسی. تهران، 1351.

gap bo'laklari orqali ifodalanuvchi so'z sifatida qaragan. P.N. Xonlariy gap bo'laklari tahlilidan so'ng gap tahliliga o'tishni to'g'ri deb hisoblagan.

A. Mavlaviy «دستور زبان فارسی» («Fors tili grammatikasi») asarida<sup>6</sup> oltita so'z turkumini ajratib ko'rsatgan: ot (اسم *esm*), sifat (صفت *sefat*), fe'l (فعل *fe'l*), ravish (قید *qeyd*), yordamchi so'zlar (حروف *horuf*), undov (شبه جمله *šabh-e jomle*). Muallif old ko'makchi va bog'lovchilarni yordamchi so'zlar (حروف *horuf*) tarkibiga kiritgan.

Keyingi ishlarda, xususan, H. Ahmadiy-Giviy va H. Anvari<sup>7</sup> grammatikasida yettita so'z turkumi ajratilganini ko'rish mumkin: ot (اسم *esm*), sifat (صفت *sefat*), fe'l (فعل *fe'l*), olmosh (ضمير *zamir*), ravish (قید *qeyd*), yordamchi so'zlar (حروف *horuf*) va undov (اصوات *osvāt*).

Y.A. Rubinchik fors tilida 11 ta (ot, sifat, olmosh, son, fe'l, ravish, modal so'zlar, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va undov) so'z turkumini ajratadi. U so'zlarni leksik-grammatik guruhlariga ajratishda semantik (predmetlilik, xususiyat, harakat va h.k. ma'nolarni ifodalashi), morfologik (grammatik kategoriyalar), sintaktik (so'zning gap va so'z birikmasidagi sintaktik vazifasi), so'z yasalishi kabi mezonlarga asoslanish kerakligi, mazkur mezonlar so'zlarning aynan qaysi leksik-grammatik guruhga oidligini aniqlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi<sup>8</sup>.

Dariy tilida so'zlarni turkumlarga ajratish fors tili bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning ta'sirida yuzaga kelgan.

M.N. Saidiy so'z turkumlarini uchga bo'ladi: fe'llar guruhi (گروه فعلها *goruh-e fe'lhā*); ravishlar guruhi (گروه قیود *goruh-e qoyud*); ismlar guruhi (گروه اسمها *goruh-e esmhā*). Ravishlar guruhiga holat (قید حالت *qayd-e hālat*), zamon (قید زمان *qayd-e zamān*), makon (قید مکان *qayd-e makān*), miqdor (قید مقدار *qayd-e meqdār*) va so'roq (قید پرسشی *qayd-e porseši*) ravishlarini, ismlar guruhiga ot (اسم *esm*), olmosh (ضمير *zamēr*), sifat (صفت *sefat*)ni kiritadi<sup>9</sup>.

M.R. Ilhom ham so'z turkumlarini uch turga ajratadi: fe'llar (فعلها *fe'lhā*), ismlar (اسمها *esmhā*) va ravishlar (قیود *qoyud*)<sup>10</sup>. Muallif M.N. Saidiydan farqli ravishda ismlarga undov (اصوات *osvāt*)ni ham kiritadi. Bundan tashqari, ko'makchi (وند *wand* yoki پسوند *paswand*) va bog'lovchi (ربط *rabt*)larni mustaqil bo'lmagan so'zlar sifatida izohlaydi.

M.H. Yamin so'z turkumlarining uch turini ajratib ko'rsatgan: fe'l guruhi (گروه فعل *goruh-e fe'l*); ravishlar (قیود *qoyud*); ism guruhi (گروه اسم *goruh-e esm*). U ism guruhiga ot (اسم *esm*), sifat (صفت *sefat*), olmosh (ضمير *zamir*) va son (عدد *adad*)ni, ravishlarga holat (قید حالت *qayd-e hālat*), zamon (قید زمان *qayd-e zamān*), makon (قید مکان *qayd-e makān*), miqdor (قید مقدار *qayd-e meqdār*), ta'kid (قید تاکید *qayd-e tākid*) va boshqa ravishlarni kiritadi. Yordamchi so'zlar haqida ham ayrim mulohazalar qayd qilingan. Uning kitobida asosiy manba sifatida eron tilshunoslarining grammatik asarlari keltirilgan<sup>11</sup>.

R. Farhodiy morfologiya bo'limida ismiy shakllar (ot, sifat, olmosh), o'zgarma shakllar (old ko'makchilar, ravishlar, bog'lovchilar, undov va taqlid so'zlar), fe'l shakllarini ajratgan<sup>12</sup>.

A. Yosin (Farxoriy) esa ot (اسم), sifat (صفت), fe'l (فعل), son (عدد) va ravish (قید) so'z turkumlarini tasniflaydi<sup>13</sup>.

<sup>6</sup> مولوی عباسعلی. دستور زبان فارسی. تهران، 1359.

<sup>7</sup> حسن انوری، حسن احمدی گیوی. دستور زبان فارسی ۲. ویرایش چهارم. - تهران، ۱۳۹۰.

<sup>8</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Восточная литература, 2001. - С. 96.

<sup>9</sup> محمد نسیم نگهت سعیدی. دستور معاصر زبان دری. - کابل، ۱۳۴۸.

<sup>10</sup> محمد رحیم الهام. دستور زبان دری. - کابل، ۱۳۴۹. - ص. ۹۱-۹۶.

<sup>11</sup> محمد حسین یمین. دستور زبان دری. صرف. "فونولوژی و مورفولوژی". - کابل، ۱۳۶۵. - ص. ۴۴-۴۵.

<sup>12</sup> Фархадӣ Р. Разговорный фарси в Афганистане. - М.: Наука, 1974. - С. 73-150.

<sup>13</sup> احمد یاسین (فرخاری). دستور سخن. - ۱۳۶۹. - ص. ۲۳-۹۳.



A. Majid ismiy guruh (گروه اسمیه ها *goruh-e esmeyahâ*) va fe'l guruhi (گروه فعل *goruh-e fe'l*), ko'makchilar (پسوند *paswand* va پیشوند *pêšwand*)ni ajratadi. Ismiy guruhga ot (اسم), sifat (صفت), olmosh (ضمیر) va son (عدد) va ravish (قید) so'z turkumlari kiritilgan<sup>14</sup>.

L.N. Kiseleva so'zlarni grammatik xususiyatlari, so'z yasalihi va ma'nosiga ko'ra mustaqil hamda yordamchi so'zlarga ajratadi. Mustaqil so'zlarga ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish so'z turkumlarini kiritadi. Shuningdek, undov so'zlar biror narsa yoki holatni bevosita atash xususiyatiga ega bo'lmasa-da, gap tarkibida alohida sintaktik vazifasi va hatto bir butun gap bo'lib kela olishini (*Wâh-wâh!* 'Voh-voh!', 'Qanday ajoyib!' kabi) hisobga olib, ularni ham mustaqil so'zlar qatoriga qo'shadi. Bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarni yordamchi so'zlarga kiritadi<sup>15</sup>.

Afg'on tilshunoslari eronlik olimlardan farqli ravishda, yordamchi so'zlarni «mustaqil bo'lmagan so'zlar» (کلمه نامستقل یا کلمه بسته) *kalema-ye nâmostaqel yâ kalema-ye basta*) deb nomlashgan. M.N. Saidiy dariy tilida so'z turkumlarini gapdagi sintaktik vazifasiga ko'ra tasniflaydi. Yordamchi so'zlar tarkibiga bog'lovchi, yuklama, ko'makchi va undovni kiritadi. M.R. Ilhom yordamchi so'zlar tarkibiga faqat so'z yasovchi (وندهای اشتقاقی *wandhâ-ye ešteqâqi*) va shakl yasovchi affikslar (وندهای تصریفی *wandhâ-ye tasrifi*)ni kiritgan<sup>16</sup>. Ammo ko'makchi, yuklama, bog'lovchilar haqida izoh berilmagan. M.H. Yamin esa yordamchi so'zlarga bog'lovchi, ko'makchi, undov va turli affikslarni kiritgan<sup>17</sup>. A. Yosin klassik dariy tili grammatikasidagi an'anani davom ettirib, «yordamchi so'zlar» (حروف *horuf*) terminini qo'llaydi. U bu turkumga bog'lovchi, ko'makchi, artikl (حروف زاید *horuf-e zâyed*)<sup>18</sup>, undov yuklamasi (حروف ندا *horuf-e nedâ*)ni kiritadi<sup>19</sup>. Undov, kinoya alohida ajratilgan. A. Majid so'zlarni tasniflashda ularning semantik jihatiga e'tibor qaratish, lozim deb hisoblaydi. U ko'makchi, undov va bog'lovchini yordamchi so'zlar sirasiga qo'shadi<sup>20</sup>.

**Ot va sifat turkumlari oraliq'idagi so'zlar.** Fors tilshunosligida K.G. Zaleman, V.A. Jukovskiy<sup>21</sup>, Mirza-Ja'far<sup>22</sup>, D.S. Fillot<sup>23</sup> kabi tilshunoslar so'z turkumlarini ajratishda yevropa tillari uchun ishlab chiqilgan tizim doirasida ot, sifat, olmosh, son, ravish, fe'l va yordamchi so'zlarni qayd etadilar. Sovet davrida tuzilgan grammatik qo'llanmalarda ham aynan shu manzara kuzatiladi. Fors tilidagi so'z turkumlarining o'ziga xos xususiyatlariga birinchi bo'lib L.I. Jirkov o'z e'tiborini qaratdi. U fors tilida juda katta miqdordagi so'zlar ot va sifat, sifat va ravish turkumlari oraliq'ida joylashganini qayd etadi<sup>24</sup>. Masalan: جوان *javân* 'yosh' va 'yigit', 'o'smir'; پیر *pir* 'qari' va 'chol'; بزرگ *bozorg* 'katta' va 'arbob'; خوب *xub* 'yaxshi' (*sifat*) va 'yaxshi' (*ravish*); بد *bad* 'yomon' (*sifat*) va 'yomon' (*ravish*) va h.k.

Bu qisqa qaydlar keyinchalik boshqa eronshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan so'z turkumlari nazariyasining asosini tashkil etdi.

Mazkur masalani tadqiq etishda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

1) ot va sifat orasidagi munosabatlar;

<sup>14</sup> عظیمه مجید. زبان دری برای دیپارتمنت های غیر زبان دری. - کابل، ۱۳۹۴. - ص. ۶۴-۲۵.

<sup>15</sup> Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. - М.: Наука, 1985. - С. 57-58.

<sup>16</sup> محمد رحیم الهام. دستور زبان دری. - کابل، ۱۳۴۹. - ص. ۹۲.

<sup>17</sup> محمد حسین یمین. دستور زبان دری. صرف. "فونولوژی و مورفولوژی". - کابل، ۱۳۶۵. - ص. ۴۵-۶۴.

<sup>18</sup> Mazkur artikl klassik tilda fe'llarga qo'shiladigan bi-artikli.

<sup>19</sup> احمد یاسین (فرخاری). دستور سخن. - ۱۳۶۹. - ص. ۱۱۷-۱۰۶.

<sup>20</sup> عظیمه مجید. زبان دری برای دیپارتمنت های غیر زبان دری. - کابل، ۱۳۹۴. - ص. ۲۸-۲۵.

<sup>21</sup> Залеман К.Г., Жуковский В.А. Краткая грамматика новоперсидского языка. - Санктпитебургь, 1890.

<sup>22</sup> Джафар М. Грамматика персидского языка. 2-е изд. - М., 1901.

<sup>23</sup> Phillot D.C. Colloquial English Persian Dictionary. - Calcutta, 1914.

<sup>24</sup> Жирков Л.И. Персидский язык. Элементарная грамматика. - М., 1927. - С. 86.

2) ravishning boshqa so'z turkumlariga munosabati.

So'z turkumlari tasnifiga doir masalalar B.S. Rastorguyevaning grammatik ocherkida o'zining eng yaxshi yechimi va ifodasini topdi. Keyingi tadqiqotlarning aksariyati uning nuqtai nazariga tayangan holda bajarildi.

B.S. Rastorguyeva turkiy tillarda qo'llaniladigan atamalardan foydalangan holda fors tilida ism (atash) xususiyatlariga ega so'zlar kategoriyasini ajratishni va ularni quyidagicha semantik chegaralashni taklif etdi:

1) otlar (predmetlar, jonli mavjudotlar, mavhum tushunchalarning nomlari);

2) sifatlar (sifat yoki belgini ifodalovchi so'zlar);

3) ot va sifat oralig'idagi so'zlar (chegaralanmagan ma'noli va ikki tomonlama, ya'ni ot va sifatga xos vazifalarni bajaruvchi so'zlar)<sup>25</sup>.

Mazkur tasnif boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham tegishli dalillar bilan tasdiqlanib bordi.

Masalan, I.K. Ovchinnikova fors tilidagi ism so'z turkumlari tasnifiga bag'ishlangan maqolasida ismlarning semantik guruhlarini ularning ot yoki sifat turkumlariga yo'nalganidan kelib chiqib quyidagicha taqsimlaydi<sup>26</sup>:

1) predmetlik ma'nosiga ega ismlar (otlar): ميز *miz* 'stol'; درخت *daraxt* 'daraxt'; مرد *mard* 'erkak'; رفتار *raftār* 'xulq'; صلح *solh* 'tinchlik' va h. k.;

2) belgi-xususiyatni nomlovchi ismlar (sifatlar): سفید *safid* 'oq'; سنگین *sangin* 'og'ir'; خوشبو *xošbu* 'yoqimli hidli', 'xushbo'y' va h. k.;

3) ham predmetning belgisi, ham shu belgi egasini nomlovchi ismlar (sifat-otlar): ایرانی *irāni* 'eronga xos' va 'eronlik'; زره پوش *zerehpūš* 'zirhlangan' va 'bronevik'; چهارگوشه *čahārguše* 'to'rt burchakli' va 'to'rtburchak' va h.k.

Muallif fors tilida ham ot, ham sifat vazifasida ishlatiladigan so'zlar miqdori juda kattaligini qayd etadi. Bunday so'zlar ma'nosi biror bir belgi-xususiyatni nomlashdan predmetlik ma'nosini ifodalash tomon rivojlanadi va ikki yo'nalishli semantika vujudga keladi.

I.K. Ovchinnikova ot va sifatlarni o'zaro chegaralashning turli mezonlarini ko'rib chiqadi. U semantik, struktur-morfologik, so'z yasalishiga oid mezonlarning aksariyat hollarda fors tilidagi ot va sifatlarni farqlash uchun yetarli va ishonchli emasligini ham ko'rsatadi. Muallif "ishonchliroq" mezon sifatida ot va sifatlarning grammatik xususiyatlari, ya'ni ularning shakllari, grammatik kategoriyalari va eng asosiysi, so'z birikmasi va gap tarkibidagi sintaktik vazifalarini aniq belgilashni taklif qiladi. Shuni aytish kerakki, mazkur belgilarning aksariyati amalda ot va sifatni bir-biridan ajratish uchun deyarli samarasiz ekanligi ko'rsatilgan<sup>27</sup>.

I.K. Ovchinnikova tomonidan taklif qilingan mezonlar orasida quyidagilar haqiqatan ot va sifatlarni farqlashga xizmat qiladi:

1) otlarga xos son kategoriyasi, aniqlik-noaniqlik artikli. Ammo bu o'rinda aksariyat sifatlarning otlashish hamda ko'plik va artikl ko'rsatkichlarini qabul qila olishini qayd etish lozim: بزرگها *bozorghā* 'kattalar'; بزرگان *bozorgān* 'ulug'lar (ko'zga ko'ringan insonlar)'; بزرگی *bozorg-i* 'qandaydir ulug' kishi';

<sup>25</sup> Расторгуйева В.С. Краткий очерк грамматики персидского языка // Миллер Б.В. Персидско-русский словарь. – М., 1950.

<sup>26</sup> Овчинникова И.К. К вопросу о классификации именных частей речи в персидском языке. – КСИНА, 1961, № 30. – С.75-85.

<sup>27</sup> Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. – Т.: ТашГИВ, 1994. – С. 28.

2) sifatlarga xos daraja kategoriyasi: سفیدتر *sefidtar* 'oqroq' – سفیدترین *sefidtarin* 'eng oq'. Mazkur mezon ham izoh talab qiladi, chunki klassik tilda ham, hozirgi fors tilida ham otlardan ba'zan qiyosiy daraja yasalishi kuzatiladi: زاهدتر *zāhedtar* 'katta zohid' (Sa'diy); چوپانتر *čupāntar* 'katta (eng yaxshi) cho'pon' (Mavlaviy); دشمنترین *došmantarin* 'eng (katta) dushman' (M. Hejoziy) va b.;

3) otlar sifatlardan farqli son va olmoshlar bilan birikmalar tuza oladi: دو کتاب *do ketāb* 'ikki kitob', طبقة هشتم *tabaye-ye haštom* 'sakkizinchi qavat', چند روز *čand ruz* 'bir necha kun'; این دختر *in doxtar* 'bu qiz' va h.k. Ammo otlashgan sifatlar bundan mustasno: این بزرگان *in bozorgān* 'bu buyuk kishilar';

4) otlar sifatlardan farqli ravishda (otlashgan sifatlar bundan mustasno) enklitik olmoshlarni qabul qiladi: کتابم *ketābam* 'kitobim', خانه ات *xāne-at* 'uying'.

I.K. Ovchinnikova taklif etgan boshqa mezonlar esa ancha munozarali va asossiz. Masalan, sifatarning otlardan farqli ravishda izofali birikmalar tarkibida aniqlanmish, ya'ni bosh so'z vazifasini bajara olmasligi. Bu mezonni mutlaq deb hisoblansa, sifatarning izofali birikma tarkibidagi birinchi qism sifatida qo'llana olishini isbotlaydigan quyidagi holatlarga izoh berish talab qilinadi: نزدیک ایستگاه *nazdik-e istgāh* 'bekatga yaqin', لبریز آب *labriz-e āb* 'suvga to'la', بهترین *behtarin-e šāgerdān* 'shogirdlardan eng yaxshisi' va h.k.

Asliy sifatarning ravishlar bilan birika olishi, otlarning esa bunday xususiyatga ega emasligi mezonni ham etarli emas (qiyoslang: خیلی بزرگ *xeyli bozorg* 'juda katta', کاملاً صحیح *juda to'g'ri* kabi *ravish+sifat* modelidagi birikmalar qatorida *ravish+ot* modelidagi خیلی اشخاص *xeyli ašxās* 'ko'pchilik kishilar' kabi misollar ham uchraydi). Masalan:

با خودم گفتم حتماً خانم خیلی خانم است *Bā xodam goftam: Hatman xānom xeyli xānom ast* 'Men o'zimga o'zim dedim: "Albatta, bu xonim haqiqiy xonim"'<sup>28</sup> (*ravish+ot* modeli: خیلی خانم).

Fors va dariy tillarida ot bilan sifat turkumlari orasida grammatik xususiyatlariga ko'ra mutlaq aniq chegaraning yo'qligi sifatlar o'rnida otlar yoki otlar o'rnida sifatarning ishlatilishini osonlashtiradi.

Y.A. Rubinchik fors tilida ism turkumini leksik-grammatik jihatdan uch guruhga ajratadi:

- 1) predmetlik ma'nosiga ega ismlar: دختر *doxtar* 'qiz bola', خانه *xāne* 'uy';
- 2) predmetlarning sifat va belgi-xususiyatini ifodalovchi ismlar: کوچک *kuček* 'kichik', سنگین *sangin* 'og'ir';

3) ham belgi-xususiyat, ham shu belgi-xususiyat egasini bildiruvchi ismlar: جوان *javān* 'yosh' va 'yigit', ایرانی *irāni* 'eroncha', 'eronlik'.

Uchinchi guruh ismlar faqat nutq jarayonida konkret ma'no kasb etadi va gapdagi sintaktik vazifasiga ko'ra ot yoki sifatga xos grammatik ko'rsatkichlarni qabul qiladi<sup>29</sup>.

L.S. Peysikovning ism so'z turkumlari tasnifiga yondoshuvi farq qiladi. U aralash, gibrid so'z turkumlarini ajratishda so'zning semantikasi va uning gapdagi grammatik qo'llanilishini an'anaviy tahlil qilishning o'zi etarli emasligini, bu o'rinda affikssiz so'z yasalishi (transpozitsiya), so'zlar distributsiyasi, omonimiya muammolari va h.k. tadqiqi ham zarurligini ta'kidlaydi<sup>30</sup>. Shunga ko'ra, L.S. Peysikov جوان *javān* 'yosh' va 'yigit', زره پوش *zerehpūš* 'zirhlangan' va 'bronevik' kabi ikki ma'noli so'zlarni qisman omonimlar<sup>31</sup> sirasiga kiritadi. U

<sup>28</sup> Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. – Т.: ТашГИВ, 1994. – С. 29.

<sup>29</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматический очерк современного персидского языка. Приложение к Персидско-русскому словарю в 2-х томах под ред. Ю.А.Рубинчика. 1-е изд., стереотипное. – М.: Русский язык, 1970. – С. 814.

<sup>30</sup> Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1973. – С.141.

<sup>31</sup> *Qisman omonimiya* termini muallif tomonidan talaffuzi bir xil, ammo semantik va sintagmatik jihatdan farqlanuvchi omonimlarga nisbatan ishlatiladi.



“shubhasiz” qisman omonimlar – سير *sir* (1) ‘(qorni) to‘q’ va سير *sir* (2) ‘sarimsoqpiyoz’ so‘zlarining tarkibiy sxemalari (so‘zning semantik, paradigmatic belgilari yig‘indisi)ni جوان (1) ‘yosh’ va جوان (2) ‘yigit’ “bahsli” qisman omonimlar bilan taqqoslaydi. Natijada L.S. Peysikov har ikkala juftlik, ya‘ni سير (1) va جوان (1) semantik va paradigmatic jihatdan سير (2) va جوان (2) bilan tegishli xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro mos kelishini aniqlaydi. Xulosa qilib aytganda, bunday tahlil جوان (1) va جوان (2) juftligini qisman omonimlar deyishga asos bo‘ladi. L.S. Peysikov tomonidan ilgari surilgan nazariya mazkur muammoning mohiyatini ochib beradi<sup>32</sup>.

Eron dasturnavislarning ot-sifat munosabatlari haqidagi fikr-mulohazalarini ham keltirish o‘rinli. Masalan, A. Humoyun Farrux turdosh otlar (اسم عام *esm-e ām*)ning orasidan belgi-xususiyat otlari (اسمهای صفتی *esmhā-ye sefati*) guruhini ajratadi va ularni predmet (ذات *zāt*) nomidan tashqari uning sifati (صفت *sefat*), holati (حالت *hālat*), vaziyati (چگونگی *čegunegi*) va o‘lchovi (اندازه *andāze*)ga ishora qiluvchi otlar deb ta‘riflaydi. Masalan, بزرگ *bozorg* ‘katta’, کوچک *kuček* ‘kuchik’, کوتاه *kutāh* ‘qisqa’, لاغر *lāyar* ‘ozg‘in’, دراز *darāz* ‘uzun’, گرد *gerd* ‘dumaloq’, ترش *torš* ‘nordon’, شور *šur* ‘sho‘r’, ‘achchiq’, سیاه *siyāh* ‘qora’ va h.k. Uning fikricha, اسم صفتی guruhidagi “so‘zlarning mohiyati sifat belgisi bilan bog‘liq” bo‘lib, سنگ *sang* ‘tosh’, برگ *barg* ‘barg’, درخت *daraxt* ‘daraxt’ va shu kabi sifat belgisiga ega bo‘lmagan otlarga qarshi qo‘yiladi<sup>33</sup>. N. Muhamedovaning yozishicha, olim tomonidan ilgari surilgan nazariya keltirilgan misollarda o‘z tasdig‘ini topmagan<sup>34</sup>.

Eron tilshunoslarning aksariyati yuqorida keltirilgan nuqtai nazar, ya‘ni fors tilidagi ot va sifatlar orasida aniq va mutlaq chegaraning yoqligini ta‘kidlaydilar. A. Xayyompur o‘z grammatikasida<sup>35</sup>, H. Anzo‘liy ham Eronda oliy o‘quv yurtlariga kirish testlariga sharhlar yozilgan darsligida sifatlar ba‘zida otlarning va aksincha, otlar sifatlarining o‘rnida kelishini aytib o‘tishgan<sup>36</sup>. H. Omuzgor va M. Za‘faronjiy o‘z lug‘atlarida ham forsha sifatlarining otlar bilan o‘rin almashish xususiyatini ta‘kidlashadi<sup>37</sup>; bu turdagi so‘zlar lug‘atda maxsus belgilar bilan ajratilgan. Lekin H. Ahmadiy-Giviy va H. Anvari bu muammoga to‘xtalishmagan.

Fors va dariy tillarida ham ot, ham sifat ma‘nolariga ega ismlardan (جوان ‘yosh’ va ‘yigit’, پیر ‘qariya’ va ‘keksa’) tashqari, sifatning ot o‘rnida yoki aksincha ishlatilishi kuzatiladi:

سير از حال گرسنه خبر ندارد *Sir az hāl-e goroshe xabar nadārad* ‘Qorni to‘qning qorni och bilan ishi yo‘q’ (maqol);

Gerdu gerd ast vāli har gerd-i gerdu nist ‘Yong‘oq dumaloq, lekin har qanday dumaloq yong‘oq emas’ (maqol).

Yuqorida aytib o‘tilganidek, otlar sifatlar o‘rnida ishlatilganda sifatga xos belgi – qiyosiy va orttirma daraja qo‘shimchalarini qabul qilishi ham mumkin:

آدمتر *ādamtar* ‘odamiyroq’, سگتر *sagtar* ‘jahldorroq’, شیطانتر *šaytāntar* ‘sho‘xroq’, ‘o‘yinqaroqroq’, دشمنترین *došmantarin* ‘eng katta dushman’ va sh.k.

Har ruz šaytāntar mišod ‘Kundan kunga o‘yinqaroq bo‘lib borardi’.

Bunday holat ot va sifatlar o‘rtasiga aniq chegara o‘tkazishni yanada qiyinlashtiradi.

<sup>32</sup>. ALIMOVA, K. (2020). Dari Word-forming Transposition Phenomenon. International Journal of Pharmaceutical Research (09752366).

<sup>33</sup> همایونفرخ عبدالرحیم. دستور جامع زبان فارسی. هفت جلد در یک مجلد، چاپ 2. تهران، 1339. – ص 46.

<sup>34</sup> Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. – Т.: ТашГИВ, 1994. – С. 31.

<sup>35</sup> خیامپور عباسعلی. دستور زبان فارسی. – تهران، 1352.

<sup>36</sup> حسن انزلی. دستور زبان فارسی. ارومیه، 1992.

<sup>37</sup> مسعود زعفرانچی، حبیب الله آموزگار. فرهنگ دانش فارسی. – تهران، 1990.

**Olmosh va son so'z turkumlari.** Ism so'z turkumlariga, shuningdek, olmosh (ضمير) va son (عدد) ham kiradi.

Olmosh predmet yoki uning biror belgisini bildirmay, predmet yoki belgi tushunchasining mavjudligini ko'rsatadigan mustaqil so'z turkumidir. Olmoshlar nutqda ot, sifat, son va ba'zan ravish o'rnida keladi.

Ot o'rnida kelgan olmoshlar otlar kabi son kategoriyasiga ega bo'ladi, old va ort ko'makchilar bilan qo'llanadi. Biroq ot so'z turkumidan farq qilib, artikl qabul qilmaydi hamda sifatlar bilan aniqlana olmaydi; من مسكين *man-e meskin* 'bechora men' shaklidagi holatlar kitobiy uslubga xos bo'lib, faqat klassik davr tilida uchraydi<sup>38</sup>.

Sifat o'rnida kelgan olmoshlar gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi.

Fors va dariy tillarida olmoshlarni ma'no va grammatik belgilari jihatidan quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. *zamir-e šaxsi* kishilik olmoshi.

Eron grammatika kitoblarida kishilik olmoshi, o'z navbatida, ikki turga ajratiladi:

a) *zamāyer-e šaxsi-ye jodā (monfasel)*, ya'ni:

من، تو، او، ما، شما، ایشان.

ایشان شما، کتاب ما، کتاب او، کتاب تو، کتاب من، کتاب مثال: کتاب

b) *zamāyer-e šaxsi-ye peyvaste (mottasel)*, ya'ni:

م، ت، ش، مان، تان، شان.

مثال: کتاب م، کتاب ت، کتاب ش، کتاب مان، کتاب تان، کتاب شان

Ko'rinadiki, enklitik olmoshlar "birikuvchi kishilik olmoshlari" sifatida o'rganiladi. M.N. Neghat Saidiy bunday yondashuvda so'zning mustaqil vazifasi e'tiborga olinmaganini ta'kidlab, dariy tili grammatikasida enklitik olmoshlarni so'z o'zgartuvchi affiks yoki olmosh affikslariga kiritadi<sup>39</sup>.

2. *zamir-e ešāre* ko'rsatish olmoshi.

3. *zamir-e moštarak* o'zlik olmoshi.

4. *zamir-e porseši* so'roq olmoshi.

5. *zamir-e mobham* gumon olmoshi.

Bu olmosh turiga o'zbek tilidagi belgilash va bo'lishsizlik olmoshlari ham kiritilgan.

**ضمایر مبهم،** همان گونه که از نامشان مشخص است، ضمیر هایی هستند که بر چیزی یا مقداری مبهم دلالت می کنند. از این ضمایر

می توان به همه، هیچ، خیلی، کمی، فلان، کسی، هرکس، هرچه، بعضی، چند و... اشاره کرد

در جملات زیر ضمیر مبهم به کار رفته است

کسی حرفتان را باور نمی کند

چون حالش خوب نبود، به او گفتم کمی به خودش استراحت بدهد

همه رفتند

البته باید دقت داشت که اگر این واژه ها همراه با اسم بیایند، نقش صفت مبهم خواهند داشت نه ضمیر مبهم

Fors tili grammatikalarida eronlik olimlar undovlarni taajjub olmoshlariga kiritadilar:

ضمیر تعجبی، همان گونه که از نامش پیداست، برای بیان تعجب استفاده می شود و شامل واژه هایی از قبیل چه، عجب، چقدر و... است.

اگر این واژه ها بدون همراهی اسم بیایند و مفهوم تعجب را برسانند، ضمیر تعجب هستند. مثلاً «چه» در جمله «چه زیبا!» ضمایر

تعجبی اگر همراه اسم بیایند، صفت تعجبی هستند

<sup>38</sup> Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М.: Наука, 1985. – С. 69.

<sup>39</sup> محمد نسیم نگهت سعیدی. دستور معاصر زبان دری. – کابل، ۱۳۴۸. ۱۳۹۲. – ص ۱۰۶.

Shuningdek, L.N. Kiseleva birgalik olmoshi (ضمير متقابل *zamir-e motaqâdel*) turini ajratadi<sup>40</sup>.

Olmoshlarga xos xususiyatlaridan biri shuki, ba'zi ot va sifatlar o'z lug'aviy ma'nosini yo'qotib, ko'rsatish, ishora ma'nolarini kasb etadi va olmosh vazifasini bajaradi. Bunday so'zlar guruhiga, eng avvalo, kishilik olmoshlarining ehtirom-izzat ma'nosidagi ekvivalentlarini (احترام های ضمير *zamirhā-ye ehterām*) kiritish lozim:

I shaxs uchun بنده *bande* 'qul', حقير *hayir* 'haqir'; احقر *ahyar* 'eng arzimasi', 'noloyiq', اينجانب *injāneb* 'bu taraf', 'kamina', ارادتمند *erādatmand* 'sadoqatli', 'sodiq', چاکر *čākar* 'xizmatkor';

II shaxs uchun – سرکار *sarkār* 'janob', 'boshliq', آنجانب *ānjāneb* 'u taraf', جناب عالی *janāb 'āli* 'janobi oliylari', سرکار عالی *sarkār-e 'āli* 'hazrati oliylari';

III shaxs uchun – معظم له *mo 'azzām(on)lah* 'ko'p hurmatli', 'muhtaram' (shoh nasliga mansub kishilarga nisbatan), نامبرده *nāmborde* 'zikr etilgan', 'eslatib o'tilgan' va b.

بندۀ آخريں نفری بودم کہ در صنف مدعوین قرار گرفتم (خسرو شاهی) *Bande āxerin nafar-i budam ke dar senf-e mad'ov(v)in yarār gereftam* 'Kamina taklif etilganlar qatorining eng oxiriga joylashdim'.

چاکر شرمندہ (غلامحسین ساعدی) *čākar šarmande* 'Janoblar, men juda uyatga qoldim'.

آدم 'odam' so'zi ham kishilik olmoshi o'rmda ishlatiladi, ammo qaysi shaxs haqida gap ketayotgani nutqiy matndan ma'lum bo'ladi:

آدم دلش نمی آید اینهارا بامان خدا بسپارد (سعید نفیسی) *Ādam del-aš nemiāyad inhā-rā beamān-e xodā besepārad* 'Bularni o'z holiga tashlab qo'yishga odamning (mening) ko'ngli(m) bo'lmayapti'.

Fors va dariy tillaridagi sonlar alohida xususiyatlarga ega emas. Shuni qayd etish kerakki, ba'zi eron tilshunoslari son turkumini arab tilidagi kabi alohida so'z turkumiga ajratmaydilar<sup>41</sup>. Fors tili grammatikasiga oid aksariyat ishlarda sanoq sonlar ham, tartib sonlar ham miqdor (hisob) sifatleri sifatida o'rganiladi (صفت عددی *sefat-e adadi*): پنج کتاب *panj ketāb* 'besh kitob', طبقه دوم *tabaye-ye dovvom* 'ikkinchi qavat'<sup>42</sup>.

**Fors va dariy tillaridagi fe'llarning xususiyatlari.** Fors va dariy tillarida fe'l so'z turkumi quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- 1) faqat fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan flektiv shakllarga ega;
- 2) soddashakllar kam – ular analitik yasalmalar bilan almashtirilgan;
- 3) fe'lning hozirgi va o'tgan zamon negizlari mavjud bo'lib, ulardan turli fe'l shakllari yasaladi<sup>43</sup>;

4) fe'lning tuslanishsiz shakllari (infinitiv, sifatdosh) ismiy so'z turkumiga yaqin turadi: آمدن *āmadan* 'kelmoq' va 'kelish', 'tashrif'; نویسندہ *navisande* 'yozayotgan' va 'yozuvchi', گفته *gofte* 'aytilgan' va 'so'z'.

**Ravish va uni ism so'z turkumlaridan farqlash muammosi.** Fors va dariy tillari grammatik qurilishining yana bir dolzarb muammosi ravishning (فيد) so'z turkumi sifatida boshqa so'z turkumlari, ayniqsa, ism turkumidan ajratish bilan bog'liq. Shuni aytish kerakki, ism turkumiga oid so'z (ot yoki sifat) belgi-xususiyat, vaqt, o'rin-joy va h.k. ma'nolarni (semantik doira imkon bersa) ifodalash bilan bir qatorda, gap tarkibida hol vazifasini bajarishi va demak, ravish bo'lib kelishi mumkin.

<sup>40</sup> Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. – М.: Наука, 1985. – С. 73.

<sup>41</sup> Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М.: Изд-во восточной литературы, 1963. – С.354.

<sup>42</sup> خانلری پرویز ناتل. دستور زبان فارسی. چاپ چهارم. – تهران، 1349. – ص. 183؛ همایونفرخ عبدالرحیم. دستور جامع زبان فارسی. هفت جلد در یک مجلد، چاپ 2، تهران، 1339. – ص. 303.

<sup>43</sup> Azimdjanova, D. I. N. A. R. A., Alimova, K. H. O. L. I. D. A., Akhmedova, D. I. L. F. U. Z. A., & Nuriddinov, N. O. D. I. R. (2022). On some issues of verbal synonymy in the Persian language. *Theoretical & Applied Science*, 3(107), 852-858.

Gap tarkibida quyidagilar hol vazifasini bajara oladi:

1) predmet yoki ish-harakatning belgi-xususiyatini bildiruvchi sifatlar: خوب *xub* 'yaxshi', بد *bad* 'yomon', زود *zud* 'tez';

2) صلحویانه: ص - کی - و - واره - انه *solhjuyāne / solhjōyāna* 'tinchliksevar' va 'tinchliksevarlarcha', برادروار *barādarvār / barādarwār* 'birodaron' va 'birodarlarcha', زورکی *zuraki / zōraki* 'majburiy' va 'majburan';

3) vaqt ma'nosini ifodalovchi otlar: تابستان *tābestān* 'yoz' va 'yozda', صبح *sobh* 'ertalab' va 'ertalab(da)', شب *šab* 'kechqurun' va 'kechqurun(da)'.  
Demak, ravishlar ism so'z turkumidan ajralib ketmagan: ot-ravish, sifat-ravish mavjud. Fors va dariy tillarida ravish turkumiga xos aniq leksik-grammatik belgilarga ega so'zlar miqdori katta emas.

Eron tilshunoslarining asarlarida fors tilida ravish so'z turkumini ot, sifat va olmosh so'z turkumlaridan ajratishdagi qiyinchilik qayd etiladi. Humoyun Farrux fors tilida ham ot, ham ravish (شب *šab* 'tun' va 'tunda', روز *ruz* 'kun' va 'kunduzi') va ham sifat, ham ravish (پاک *pāk* 'toza', سخت *saxt* 'qiyin') so'z turkumlariga oid aralash ravishlar (قید مشترک *qeyd-e moštarak*) borligini qayd etgan<sup>44</sup>. Y.A. Rubinchikning ko'rsatishicha, fors tilida ravishlarning morfologik xususiyatlarini belgilashdagi noaniqliklar tufayli N.V. Xrisanov ularni ikki guruhga ajratadi: asl ravishlar va omonim ravishlar. Birinchi guruh ravishlarga boshqa so'z turkumlaridan keskin farq qilib, aniq leksik-grammatik belgilarga ega so'zlar (هرگز *hargez* 'hech qachon', ناگاهان *nagahān* 'to'satdan', برایگان *berāyegan* 'tekinga', رسماً *rasman* 'rasman'), ikkinchi guruhga adverbial ma'no kasb etgan ot, sifat, sifatdosh kabilar kiradi. N.V. Xrisanovning fikricha, omonim ravishlar butunlay ravish hisoblanmay, ravishlashish jarayonidagi so'zlardir<sup>45</sup> (پاک *pāk* 'toza' → 'butunlay', 'batamom'; تازه *tāze* 'yangi' → 'yaqinda', 'yana', 'boshqatdan' kabilar).

Ko'rinadiki, ravish so'z turkumi sifatida shakllanayotgan paytda o'z tarkibini boshqa so'z turkumlaridan ajralib chiqqan so'zlar – ot, sifat, olmosh, sifatdoshlar hisobiga to'ldirgan. Hozirgi vaqtda ravishlarning ma'lum qismini boshqa turkumdan ravishga ko'chgan so'zlar tashkil etadi. Ravishlashgan so'zlar zaruriyat tug'ilishi natijasida vaqtincha ravish vazifasini bajarib kelgan bo'lib, o'z turkumiga xos leksik-grammatik xususiyatlarni yo'qotgan emas. Shu sababli lug'atlarda ba'zi sifatning ham sifat, ham ravish tarzidagi tarjimai beriladi.

**Yordamchi so'zlar.** Fors va dariy tillarida sodda old ko'makchilar (حروف اضافه *horuf-e ezāfe*) va bog'lovchilar (حروف ربط *horuf-e rabt*)ning soni ko'p emas. Ularning tanqisligi mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlar guruhiga ko'chishi: سر *sar* 'bosh' → *sar-e* ... '-ga', '-da', پشت *pošt* 'orqa' → *pošt-e* ... 'orqasida(-ga)' yoki frazeologik birikmalarning grammatikalashuvi orqali to'ldirilib boriladi: ... به توجه *bā tavajjoh be...* '-ni hisobga olib', بمحض اینکه *be mahz-e inke* '...shi bilan' va h.k.

Fors va dariy tillarida yordamchi so'zlar tizimi doimiy harakatda bo'lib, yangi birliklar hisobiga boyib boradi.

Fors va dariy tillari grammatik qurilishi tadqiqida qiziq faktlar kuzatiladi. Masalan, داشتن *bardāstan* 'ko'tarmoq' va داشتن *bāzdāstan* 'qaytmoq' kabi fe'llar tarkibidagi بر *bar-* va باز *bāz-* prefikslarining mustaqil so'z turkumlariga aloqasi bormi-yo'qmi, degan savol tug'iladi. Chunki bunday fe'llar tuslanganda, mazkur prefikslar distant holatda bo'lib, so'z yaxlitligi

<sup>44</sup> دستور زبان فارسی. پنج استاد. - تهران، ۱۳۷۳؛ حسن انوری، حسن احمدی گیوی. دستور زبان فارسی ۲. ویرایش چهارم. - تهران، ۱۳۹۰. ص 189-190؛ 223.

<sup>45</sup> Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М.: Восточная литература РАН, 2001. - С. 291.

mezoni buziladi: *bar xāham dāšt* 'ko'taraman', *bāz migašt* 'qaytardi'. Ko'rinadiki, fors va dariy tillaridagi fe'l prefikslari rus tilidagi fe'l pristavkalari (masalan, prixodit 'kelmoq', uxodit 'ketmoq', proxodit 'o'tmoq' fe'llari) kabi emas. Shuningdek, modal so'zlarni so'z turkumi sifatida ajratishga e'tiroz mavjud, chunki bunday so'zlar batamom boshqa so'z turkumlari hisobiga shakllanadi<sup>46</sup>.

## XULOSA

1. Fors va dariy tillarida mustaqil so'zlar quyidagi so'z turkumlari o'rtasida taqsimlanadi: ot, sifat, ot-sifat, son, olmosh, fe'l va ravish. Yordamchi so'zlar nominativ (atash) vazifaga ega emas, mustaqil so'zlar orasidagi (old va ort ko'makchilar) yoki so'z va gaplar orasidagi (bog'lovchilar) munosabatlarni ifodalaydi, ayrim so'z va gapga birikib, turli ma'no ottenkalarini (yuklama) beradi. Undovlar his-hayajon, buyruq-xitob, haydash, chaqirish kabi ma'nolarni bildiradi. Modal so'zlar so'zlovchining o'zi ifodalayotgan fikrga turli munosabatini, fikrning aniqligi, noaniqligi kabi ma'nolarni ifodalaydi.

2. Eronlik tilshunoslarning asarlarida so'z turkumlari 6 tadan 9 tagacha ajratilgan. Ba'zi tasniflarda son va undov ajratilmagan, old ko'makchilar va bog'lovchilar bitta guruh (حروف *horuf*)ga jamlangan (A. Humoyun Farrux) yoxud olmosh va son ajratilmagan, lekin undovni ajratib, old ko'makchilar va bog'lovchilar bitta guruh (حروف *horuf*)ga kiritilgan (A. Xayyompur va A. Mavlaviy). Sonlar sanoq sifatlar (صفت شمارشی *sefat-e šomāreši*) tarkibida tavsiflangan. Ayrim ishlarda so'z turkumlariga gap bo'laklari orqali ifodalanuvchi so'z sifatida qaralgan (P.N. Xonlariy). So'z turkumlarini tasniflashda asos sifatida morfologik, semantik va so'z yasovchi belgilar e'tiborga olinmay, faqat sintaktik mezonga asoslanilgan.

3. Afg'on tilshunoslarining aksariyati dariy tilidagi so'z turkumlarini uch turga ajratadi: fe'llar guruhi (گروه فعلها *goruh-e fe'lhâ*); ravishlar guruhi (گروه قیود *goruh-e qoyud*); ismlar guruhi (گروه اسمها *goruh-e esmhâ*) (M.N. Saidiy, M.R. Ilhom, M.H. Yamin). Ismlar guruhiga ot (اسم *esm*), olmosh (ضمیر *zamêr*), sifat (صفت *sefat*), ba'zi ishlarda son (عدد *adad*) (M.H. Yamin) kiritilgan. Shuningdek, ismiy guruh (گروه اسمیه ها *goruh-e esmeyahâ*) va fe'l guruhi (گروه فعل *goruh-e fe'l*), ko'makchilar (پسوند *paswand* va پیشوند *pêšwand*)ni ajratish kuzatiladi (A. Majid). Dariy tilida ham so'z turkumlari gapdagi sintaktik vazifasiga ko'ra tasniflangan. Afg'on tilshunoslari eronlik olimlardan farqli ravishda, yordamchi so'zlarni «mustaqil bo'lmagan so'zlar» (کلمه نامستقل یا کلمه بسته *kalema-ye nâmostaqel yâ kalema-ye basta*) deb nomlashgan. Yordamchi so'zlar tarkibiga bog'lovchi, yuklama, ko'makchi va undov (M.N. Saidiy) yoxud faqat so'z yasovchi (وندهای اشتقاقی *wandhâ-ye ešteqâqi*) va shakl yasovchi affikslar (وندهای تصریفی *wandhâ-ye tasrifi*) (M.R. Ilhom) yoki bog'lovchi, ko'makchi, undov va turli affikslar (M.H. Yamin) kiritilgan.

4. Fors va dariy tillarida so'zlarni leksik-grammatik guruhlariga ajratishda a) semantik (predmetlilik, xususiyat, harakat va h.k. ma'nolarni ifodalashi), b) morfologik (grammatik kategoriyalar), c) sintaktik (so'zning gap va so'z birikmasidagi sintaktik vazifasi), d) so'z yasalishi kabi mezonlarga asoslanish so'zlarning aynan qaysi leksik-grammatik guruhga oidligini aniqlashga xizmat qiladi..

<sup>46</sup> Bu haqda qarang. Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. – Т.: ТашГИВ, 1994. – С. 33.